XORAZM VILOYATI TUPROQQAL’A TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 12-fevral | 34-12-218-Q/25 | Tuproqqal’a tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-sonli qarorining ijrosi haqida

Tumanda pillachilikni yanada rivojlantirish, sohada ishlash istagida bo‘lgan aholi, shu jumladan, xotin-qizlarni qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularning ushbu sohada bandligini ta’minlash orqali qishloq joylarida aholining farovonligini oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-sonli hamda Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 4-fevraldagi 66-12-0-Q/25-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-sonli hamda Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 4-fevraldagi 66-12-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularni sohaga jalb qilishning asosiy parametrlari doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar 2025-yilda Davlat byudjetidan O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi tomonidan viloyatga ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularni sohaga jalb qilishning asosiy parametrlari (keyingi o‘rinlarda – asosiy parametrlar) 1-ilovaga;

xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularning sohada bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash tizimini tashkil etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi bilan birgalikda xotin-qizlarning pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish uchun 3-ilovaga muvofiq binolardan vaqtinchalik joy ajratish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman qishloq xo‘jaligi bo ‘limi hamda viloyat ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish boshqarmasi bilan birgalikda pillachilik sohasida band bo‘lgan fuqarolarning ma’lumotlari “yangiish.mehnat.uz”platformasiga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh bo‘limi (Z.Raxmanov) hamda tuman soliq bo‘limi (S.Ro‘zimova) asosiy parametrlarga muvofiq pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tamomlagan xotin-qizlarning doimiy va mavsumiy ishlarga qabul qilinganligi hisobini “yangiish.mehnat.uz” platformasi orqali yuritsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokiminingo‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i M.Aminova va tuman hokimining o‘rinbosari X.Jumaniyozov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Jimalyazov**

Tuproqqal’a tuman hokimining
2025-yil 12-fevraldagi
34-12-218-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuproqqal’a tumanida xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularni sohaga jalb qilishning

ASOSIY PARAMETRLARI

T/r	Tuman	**Mavjud korxonalar soni***(birlik)*			**Jamibandligita’minlanadiganlarsoni** *(nafar)*	**Shundan,o‘quvkurslarigatinglovchilarsoni** *(nafar)*	Shu jumladan, sohalar kesimida (nafar)				*Shu jumladan, yillar kesimida*									
											2025-yil					**2026-yil**				
											Jami	*shundan: (nafar)*				**Jami**	*shundan: (nafar)*			
		Pillachilik klasterlari	*urug‘chilik korxonalari*	*Tutchilik xo‘jaliklari*			*Ipak qurti parvarishida*	*sanoat va hunarmandchilikda*	*urug‘chilik korxonalarida*	*Tutchilik xo‘jaliklarida*		*Ipak qurti parvarishida*	*sanoat va hunarmandchilikda*	*urug‘chilik korxonalarida*	*Tutchilik xo‘jaliklarida*		*Ipak qurti parvarishida*	*sanoat va hunarmandchilikda*	*urug‘chilik korxonalarida*	*Tutchilik xo‘jaliklarida*
1	Tuproqqal’a tumani				843	436	436				291	291				145	145			

Tuproqqal’a tuman hokimining
2025-yil 12-fevraldagi
34-12-218-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularning sohada bandligini bosqichma-bosqichta’minlash tizimini tashkil etish bo‘yicha YO‘L XARITASI

T/r.	Chora-tadbirlar	Amalgaoshirishmexanizmi	Muddati	Mas’ullar
1.	Tumandagi ishsiz va band bo‘lmagan aholi, shu jumladan, xotin-qizlar ro‘yxatini shakllantirish.	Mahallalar kesimida ishsizva band bo‘lmagan aholini, birinchi navbatda xotin-qizlarning ro‘yxatini shakllantirish hamda tumanlar hokim o‘rinbosarlari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshliqlariga taqdim etish. Pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qish istagini bildirgan xotin-qizlarning yakuniy ro‘yxatini viloyat hokimi o‘rinbosarlari – viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘iga taqdim etish. Shakllantirilgan ro‘yxatni viloyat ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish boshqarmasi taqdim	Har chorakning so‘nggi oyi 15-sanasi Har chorakning so‘nggi oyi 25-sanasi Har chorakda	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tuman hokimligi

		etish.		
2.	Pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini o‘qitishga mo‘ljallangan joylarni tayyorlash.	O‘quv kurslari tashkil etilishi belgilangan binolarni tayyorlash. O‘quv kurslari tashkil etiladigan maydonlarda tut ekish sirlari, plyonka ostida boqish, “etajerka”usuli, ipak qurtiga bargni maydalab berish, 3 yoshgacha boqib tarqatish uslublarini amaliyotda tushuntirib berish uchun kerakli jihozlarni yetkazish va tayyor holga keltirish.	O‘quv kurslari boshlanishidanbir hafta oldin	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi ,tuman hokimligi

3.	Pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tizimli tashkil etish.	Har chorakda 2 kunlik o‘quv kurs (mashg‘ulot)larine tashkil etish. Xorijiy (Xitoy, Vyetnam, Hindiston va Yaponiya) ipakchilik sohasidagi mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘quv kurslarini tashkil etish. O‘quv kurslarini yakunlagan tinglovchilarga sertifikat taqdim etish.	Har chorakning so‘ngioyi15-sanasiga qadar kelishuvasosida o‘quvkurslari yakunida	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tuman hokimligi
4.	Salohiyatli tinglovchilar xonadoniga ipakchilik sanoatini olib kirish hamda	Xonadoniga sanoat kirib borish istagidagi tinglovchilar ro‘yxatini shakllantirish.	Har chorakda	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi,

	kasanachilik asosida bandligini ta’minlash.	Ipakchilik klasterlari tomonidan qo‘lda ipak gilam va ipak mato to‘qish istagidagi tinglovchilarni uch oy davomida o‘qitish. Qo‘lda ipak gilam va ipak mato to‘qish uslublarini o‘rgangan tinglovchilar xonadoniga dastgohlar yetkazib berish. Ipakchilik klasterlari tomonidan zarur xomashyolarni xonadonlarga yetkazib berish. Ipakchilik klasterlari tomonidan tayyor bo‘lgan mahsulotlarni shartnoma asosida yig‘ib olish.	Doimiy ravishda o‘quv kurslari yakuni bilan doimiy ravishda	
5.	Ipak qurti ozuqa bazasini qishloq hududlarida rivojlantirishni tashkil etish.	Aholi xonadonlariga qarashli tomorqa atrofida tut ko‘chatlari ekish. Aholi xonadonlariga qarashli tomorqa yerlarida 1-1,5 sotixlik o‘rma tutzorlar tashkil etish. “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tomonidan shartnoma asosida tut ko‘chatlarini hududlarga yetkazib berish.	2025-2026-yillarda reja asosida belgilangan hududlarda 2025-2026-yillarda 2025-2026-yillarda	Fermer dehqon xo‘jaliklari tomarqa yer egalari tuman kengashi

Tuproqqal’a tuman hokimining
2025-yil 12-fevraldagi
34-12-218-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Xotin-qizlarning pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish uchun vaqtinchalik ajratiladigan o‘quv joyi manzilining

RO‘YXATI

T/r.	Tuman	O‘quv joyi
1.	Tuproqqal’a tumani	Tuproqqal’a kasb-hunar maktabi binosida